



THE SIGNIFICANCE OF THE SYSTEM-FUNCTIONAL APPROACH IN THE ANALYSIS OF A WORK OF ART

Bibinur Y. Medesheva

PhD student

TSUOS

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: discourse, function, system-functional linguistics, metafunction, verb, types of process.

Received: 15.05.24

Accepted: 17.05.24

Published: 19.05.24

Abstract: The article reveals the features of discourse analysis based on M.Holliday's system-functional theory. Also brief information about the development of systemic functional linguistics, its representatives and the importance of this branch of linguistics is given. The importance of the theory of systemic functional linguistics in the discourse analysis of artistic work is discussed. Founder of the theory of systemic functional linguistics is Michael Holliday. In English-language scientific literatures, one can find terms that refer to the concept: "systemic grammar", "system functional linguistics", "systemic functional grammar", "systemic linguistics".

BADIY ASAR TAHLILIDA SISTEM-FUNKSIONAL YONDASHUVNING AHAMIYATI

Bibinur Y. Medesheva

tayanch doktorant

TDSHU

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: diskurs, funksiya, sistem-funksional tilshunoslik, metafunksiya, fe'l, jarayon turlari.

Annotatsiya: Maqlada diskurs tahlil xususiyatlarini M.Hallideyning sistem-funksional tahlil nazariyasi asosida ochib beriladi. Shuningdek, sistem-funksional tilshunoslikning rivojlanishi, namoyandalari hamda ushbu tilshunoslik tarmog'ining ahamiyati haqida qisqa ma'lumot beriladi. Badiiy asar diskurs tahlilida sistem-funksional tilshunoslik nazariyasi ahamiyati haqida so'z

yuritiladi. Sistem-funksional tilshunoslik nazariyasi asoschisi Maykl Hallidey hisoblanadi. Ingliz tilidagi ilmiy adabiyotlarda mazkur konsepsiyaning turlicha atamalarini uchratish mumkin: “sistem grammatika”, “sistem-funksional tilshunoslik”, “sistem-funksional grammatika”, “sistem tilshunoslik”.

ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМНО-ФУНКЦИОНАЛЬНОГО ПОДХОДА В АНАЛИЗЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Бибинур Е. Медешевой

Базовый докторант

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: дискурс, функция, системно-функциональная лингвистика, метафункция, глагол, типы процессов.

Аннотация: В статье раскрываются особенности дискурс анализа на основе системно-функциональной теории М. Холлидея. Также, даны краткие сведения о развитии системно-функциональной лингвистики, ее представителях и значении этой направлении языкоznания. Обсуждается значение теории системно-функциональной лингвистики в дискурсивном анализе художественного произведения. Основатель теории системно-функциональной лингвистики Майкл Холлидей. В англоязычных научных литературах можно встретить разные термины которыми называется концепция: «системная грамматика», «системно-функциональная лингвистика», «системно-функциональная грамматика», «системная лингвистика».

KIRISH

Hozirgi kunda tilshunoslik taraqqiyotini turli maktab va yo‘nalishlarga egaligi, til va nutqqa turlicha yondashuvlarning mavjudligi bilan izohlash mumkin. Ular orasida davomiy taraqqiy etib kelayotgan yo‘nalishlardan biri – funksionalizm bo‘lib, tilda asosiy e’tibor inson omiliga qaratiladi.

Keng ma’noda “diskurs” atamasi tilni harakat jarayonida ifodalash uchun ishlataladi. Tildan kundalik hayotda asosiy muloqot vositasi sifatida foydalaniladi. An’anaviy tilshunoslik tildagi bir so‘z yoki ifoda darajasidagi tahlilga asoslangan, diskurs tahlil esa mazkur fokusni kengaytirdi hamda asosiy e’tiborni so‘zlovchilar og‘zaki va yozma nutqdan qanday foydalanayotganligiga

qaratdi. Bunda kontekstdan kelib chiqib tahlil qilinadi, so‘z va ifodalarning tahlili diskurs tahlilga kirdgani bilan faqtgina diskursning umumiy tushunchasini anglatadi [8, p.273]

ASOSIY QISM

So‘nggi 30 yil ichida dunyo tilshunoslari tomonidan diskurs haqida ko‘plab ishlar yozilganligiga qaramay, diskurs murakkab muloqot hodisasi bo‘lib qolmoqda va “diskurs” tushunchasi hali hanuz o‘zining aniq chegaralariga ega emas. Shu tufayli ham diskurs tahlilda murakkab vazifalar qo‘yilib, turli tarafdan sinchiklab o‘rganilishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan diskurs tahlil olib borishda M.Hallidey tomonidan ishlab chiqilgan sistem-funksional tilshunoslik nazariyasi yondashuviga asoslangan tahlildan foydalanish mazkur murakkab vazifalarni bajarishda dasturulamal bo‘ladi. Sistem-funksional tahlil 1960-yillarda britaniyalik olim Maykl Hallidey tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, badiiy asar tilini lingvistik jihatdan o‘rganishga asoslanadi. Aniqroq qilib aytganda, mazkur nazariya ijtimoiy kontekstda tilga ahamiyat qaratadi. Mazkur model muloqot qiluvchilar ma’lum muloqot maqsadiga ega bo‘lgan diskurs atamalari va voqeiy kontekstda o‘rganiladi [2, p.198]. Sistem-funksional grammatika modeli o‘zi bilan murakkab o‘zaro bog‘liq komponentlarni namoyon qiladi. Unda til kontekst bilan mustahkam bog‘langan bo‘ladi. Mazkur strukturada grammatik sistema va til funksiyalari o‘rtasidagi munosabat uch metafunksiya (tajribaviy, shaxslararo, matniy) orqali yuzaga chiqadi [10].

Grammatik sistemalar esa o‘z navbatida uch kategoriya: hudud, yo‘nalish, usul bilan bog‘langan bo‘lib, kontekstda o‘rganiladi. Til ifoda (fonetika va fonologiya), ma’no (leksika, grammatika, semantika) va kontekst darajasida stratafikatsiyalangan [6, p.427].

Sistem-funksional tilshunoslik tilning g‘oyaviy (semantik) mazmunini namoyon qilish uchun foydalilanidigan tranzitiv sistemani taklif qiladi. Mazkur tahlilning asosini sodda gap tashkil etadi [4, p.29-56].

Bunday gap ikki asosiy elementdan iborat bo‘ladi: jarayon va mazkur jarayonga jalb qilingan ishtirokchi. Jarayonlar orqali ishtirokchilar harakat, fikr, voqelik, tasdiq va holatni namoyon qilishadi. Jarayonlar sodda gaplarda fe’l yoki fe’liy iboralar orqali yuzaga chiqadi [6, p.425].

Jarayonlarning turlari 1-jadvalda berilgan.

Sistem-funksional tilshunoslikda janrga muayyan madaniy shartli maqsadga erishishda tildan foydalanish vositasi sifatida qaraydi. Bu holda janr madaniy kontekstga (kontekstning ekstralolingvistik stratasiga) oid bo‘ladi [5, p.126].

1-jadval. M.Hallidey nazariyasi bo‘yicha jarayon turlari

| Jarayon nomi | Ma’nosi | Misollar |
|---------------------|---|--|
| Moddiy jarayon | “bajarish, qilish” va “so‘zlab berish” fe’llari | Yuz bermoq, bo‘lmoq, ishlamoq, tushmoq, kelmoq |
| Bog‘lamali jarayon | “ega bo‘lish” va “bo‘lish” fe’llari | Ega bo‘lmoq, bo‘lmoq |

| | | |
|-----------------------|--------------------------------------|--|
| Aqliy jarayon | “his qilish”, “fikrlash” fe’llari | Yaxshi ko’rmoq, bilmoq, istamoq, tushunmoq, qiziqmoq, his qilmoq |
| Verbal jarayon | “aytish, gapirish” fe’llari | Tushuntirmoq, aytnomoq, so’zlab bermoq, so’ramoq, erkalamoq |
| Xatti-harakat jarayon | “o’zini tutish”, “bajarish” fe’llari | Yashamoq, kulmoq, uxlamoq, qaramoq |

Agar XX asrda tilshunoslik fani rivojining asosiy xususiyatlari haqida gapiradigan bo‘lsak, bunga amerikalik olim Noam Chomskiyning nazariyasi katta ahamiyat kasb etgan. Chomskiyning g‘oyalari o‘z amaliyotiga ega bo‘ldi va keyinchalik turli davlatlarda rivojlana boshladi. Buyuk Britaniyada XX asr o‘rtalarida eng ko‘zga ko‘ringan konsepsiylar London tilshunoslik maktabi bo‘lgan va ushbu tilshunoslik maktabi Jon Fyors tomonidan tashkil etilgan [12, b.173]. Shu tariqa sistem-funksional tilshunoslikka ilk qadamlar qo‘yila boshlangan.

G.Tompson ta’kidlaganidek, “sistem-funksional grammatika – XX asrda hukmronlik qilgan tamoyil o‘rniga nisbatan to‘liq ishlab chiqilgan va sintaksis, semantika, sotsiolingvistika singari til hodisalarini tavsiflash muammosini turli sohalarga ajratgan. Til – insonlar aloqa vositasi va tadqiqotning barcha etaplarida til hodisalarini bir butunlikda ko‘rib chiqilgandagina tushunish mumkin” [11, p.231].

Yu. Gavrilovaning ta’kidlashicha, britaniya tilshunoslige fundamental ilmiy fan sifatida aynan London universiteti (University of London) kollejlaridan biri hisoblangan Sharq va Afrika xalqlarini o‘rganish maktabi (School of Oriental and African Studies) asosida shakllangan. Mazkur kollej 1916-yilda Imperiya tarkibiga kiruvchi turli tillarni tadqiq etish zaruriyati tufayli tashkil etilgan edi. Proffesor Fyorsning o‘zi ham Hindiston tillaridan dars bergen va ushbu til haqida ilmiy ish ham olib borgan. Tadqiqotchining nazariyasi fonologik aspektida bo‘lishiga qaramay, semantik jihatlarni ham o‘z ichiga olgan. Sematik jihat aynan “vaziyatlar konteksti” uchun asosiy tushuncha bo‘lgan [12, b.174].

Keyinchalik uning qarashlarini M.Hallidey davom ettirgan va o‘z nazariyasiga asos solgan. Shuning uchun ham sistem-funksional tilshunoslilik nazariyasi asoschisi Maykl Hallidey hisoblanadi. U ilk bor ushbu modeldan Goldingning “Vorislar” romani uslubini tahlil qilishda foydalangan. Mazkur nazariyadan badiiy asar tilini tilshunoslilik nuqtai nazaridan tahlil qilishda foydalaniladi. Sistem-funksional grammatikaning ba’zi muhim jihatlarini ochishda M.Hallidey (M.Holliday), R.Haddlston (R.Huddleston), R.Hasan, G.Terner (G.Turner), S.Mattisen (S.Matthiesen), R.Hudson (R.Hudson) kabi boshqa britaniyalik olimlar bilan hamkorlikda ishlagan. Ta’kidlash joizki, ilmiy adabiyot hamda so‘zlashuv uslubini, Osiyo va Afrika xalqlari tilini tahlil qilishda sistemaviy tahlil tamoyillaridan foydalanilgan.

Nazariya o'tgan asrning 70-yillaridayoq nomlari qayd etilgan olimlardan tashqari boshqa olimlar tomonidan ham qo'llanila boshlangan. R. Foset (R.Fawset), S.Batler (S.Butler), M.Berri (M.Berry) kabi olimlar Buyuk Britaniyada, M.Gregori (M.Gregory) va uning hamkasblari esa Kanadada nazariya bo'yicha izlanish olib borgan. Boshqa xorijiy davlatlarda esa 80-yillardayyoq sistemaviy nazariyaning keng tarqaganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa sistem-funksional tilshunoslikning taraqqiy etib borish bosqichlarini ko'rsatadi. Ushbu nazariyadan yondosh fanlarda ham foydalanildi, chunki sistemaviy tahlil xususiy tilshunoslikdan chiqib boshqa fanlar: sun'iy intellekt, bolalarining til rivojlanishi, diskurs tahlil va stilistika, til tarbiyasi, neyrolingvistika kabi sohalarda nazariy asos sifatida olindi [12, b.175]. 80-yillarda sistem tilshunoslik nazariyasining rivojlanishiga undan nafaqat ingliz tili, balki boshqa tillar: fransuz tili, nemis tili; sharq tillaridan: indonez tili, yapon tili, xitoy tillarini tahlil qilishda ham foydalanildi. Bu o'z-o'zidan XX asrda ham J.Fyors hamda uning hamkasblari (M.Hallidey) tomonidan lingvistik material tadqiqoti bilan bog'liq bo'lган tilshunoslik an'analari saqlanib qolganligini anglatadi.

Yu. V. Gavrilova 1974-yilda Foset Buyuk Britaniyada Vest Midlands kolleji (West Midlands College of Education)da sistemaviy tilshunoslik tadqiqotchilarilari ilk seminarini tashkil etganligini ta'kidlaydi [12, b.177].

Sistem-funksional tilshunoslik qator tushunchalarni o'z ichiga oladi: semiotik sistema, janr, matn, ma'no, grammatik metafora va hokazo [9, p.7].

Sa'diy Sheraziyning "Guliston" asarida ishlatilgan fe'llarni tilshunoslik jihatidan tahlil qilishda sistem-funksional tilshunoslik nazariyasidan foydalanish asarning qadr-qiyomi yuqoriligining sababini ko'rsatish, asrlar o'tsa-da o'z ahamiyatini yo'qotmaslik sirini ochishga yordam beradi.

Sa'diy Sheraziy fe'llarning ishlatilishiga alohida ahamiyat bergen. Fe'llarni tahlil qilishda tilshunoslikda yangi nazariya hisoblanuvchi – sistem-funksional tilshunoslik nazariyasi bo'yicha sistemalashtirib tahlil qilishda fe'llarni jarayonlar (فرايند)ga bo'lib o'rganish orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, badiiy asar tilini mazkur nazariya orqali tahlil qilish fe'llarning ishlatilish xususiyatlarini aniqroq ochishga imkon beradi. Chunki sistem-funksional tilshunoslik tilning xususiyatlarini kontekstda (og'zaki yoki yozma) o'rganuvchi fandir. Fors tilshunostigida fe'l stilistikasi (funksional jihatlari) bo'yicha ma'lum asarlar asosida olib borilgan tadqiqotlar turli hajmdagi ishlarda o'z aksini topgan. Mazkur ishlarda fe'llarni tadqiq va tahlil qilishda yuqorida nomi keltirilgan nazariya, M. Hallideyning sistem-funksional grammatika nazariyasi asos bo'lган.

Sistem-funksional tilshunoslikda til – ma'no bildiruvchi belgilardan biri hisoblanadi. Ishlatilinuvchi til shakli diskursning turli aspektlariga bog'liq bo'ladi. M.Hallidey ta'kidlashiga ko'ra, avvallari stilistika deb atalgan mazkur nazariy asosdan diskurs tahlilda foydalanish mumkin.

S.Hamelning yozishicha, stilistika bu – badiiy asarda ma’nolar berilishini lingvistik vositalar yordamida sistemaviy tahlil qilishdir [7, p.255]. D.Batt (D.Butt) va A.Lukin (A.Lukin) ham ta’kidlaganidek, stilistik tahlilning asosiy vazifasi – tahlil qilinayotgan matndagi tashkillashtirilgan shakllarni ajratib ko‘rsatishdir [1, p.192]. M.Hallidey va R.Hasan stilistik tahlilning ahamiyatini matnlarning diskurs tahlili uchun mos miqdoriy asos topishda deb biladilar [3].

Mazkur tadqiqot uchun Sa’diy Sheraziyning “Guliston” asari birinichi bobidan bir nechta hikoyatlari tahlil qilingan. Ulardan olingan xulosalardan ba’zilarini (birinchi bob beshinchi hikoyat) jadvalda keltiramiz:

2-jadval. Sa’diy “Guliston”i birinchi bob beshinchi hikoyatda uchragan fe’llar:

| Jarayon turi | Misollar | Soni |
|--|---|------|
| Moddiy jarayonlar мади | мى تافت ، چە زند، چە كنم | 3 |
| Aqliy jarayonlar ذهنی | آرزو خواهند، راست خواهی | 2 |
| Bog‘lamali jarayonlar رابطه ای | داشت، داشت، است، است، فایده نمودند، مهر باشد، چیست، راضی نمی شود، رنج در است، رنجی است | 10 |
| Verbal jarayonlar کلامی | گفته اند، پرسید، گفت، راضی کردم | 4 |
| Xatti-harakat jarayonlari رفتاری | دیدم، نظر افتاد ، حسد بردن، خیانتی کردن، نیازارم، نبیند | 6 |

Barcha hikoyatlardagi jarayon turlari aniqlanib chastotasi chiqarilganda eng ko‘p foydalanilgan jarayon turi, har bobga tanlab olingan mavzu hikoyatlar ichida ishlatilgan fe’llar bilan qay darajada ochib berilganligini aniqlashga imkon beradi. Tahlil natijasiga ko‘ra, birinchi bob beshinchi hikoyatda umumiy 25 ta jarayon ishlatilgan, ulardan eng ko‘p ishlatilgani bog‘lamali jarayon bo‘lib (10 ta 40%), ustunligining sababi so‘zlovchi nutqining ko‘pligi, shuningdek fors tiliga xos ba’zi xususiyatlar bilan izohlanadi.

XULOSA

Badiiy asar tilini, xususan, fe’llarni mazkur nazariya asosida tadqiq etish bilan “Guliston” asari tilining xususiyatlarini, asar tilining yoqimli va shirali ekanligi sababi ochilishi imkon beradi. Bundan tashqari har bir hikoyatda stilistikaning lingvistik elementlari qay darajada ko‘zga tashlanishini, har bir hikoyatda tajribaviy metafunksiyaning qaysi jarayonidan eng ko‘p foydalanilganligini, har bir tanlab olingan mavzu va hikoyat mazmuni o‘rtasida bog‘liqlik qay darajadaligini aniqlash, tanlab olingan mavzu bilan tajribaviy metafunksiyaning qaysi turi bog‘liqligini ochish mumkin. M.Hallidey nazariyasi asosida diskursning narrativ turi xususiyatlarini ochishga yordam beradi. Bu model asosida asarda qaysi jarayon ustunlik qilganini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Butt, D. G, & A. Lukin.“Stylistic analysis: Construing aesthetic organization. In M. A. K. Halliday and D. Webster” (eds.). Continuum Companion to Sistemic Functional Linguistics. New York: Continnum. Butt, D. G, & A. Lukin (2009). Pp. 190-215
2. Gerot L., Wignell P. Making Sense of functional Grammar. Gold Coast, Queensland: Antipodean Educational Enterprises,1998. 258 P.
3. Halliday, M.A.K. and R. Hassan. Cohesion in English. London: Longman. 1976. 374 P.
4. Halliday M.A.K. Dimensions of discourse and grammar// Handbook of Discourse Analysis: in 4 vols. L.: Academic Press, 1985. Vol. 2. Dimensions of Discourse. Pp. 29-56
5. Halliday M.A.K. Language, Context, and Text: Aspects of Language in Social-Semiotic Perspective. Oxford: Oxford University Press, 1989. 126 P.
6. Halliday M.A.K., Matthiessen C.M.I.M. An Introduction to Functional Grammar. 3rd ed. L. – N.Y. – Sydney – Auckland: Edward Arnold, 2004. 480 P.
7. Hamel S.C., Semiotics, Theory and Applications. New York: Norva Science Publishers. 2011. 272 P.
8. Martin J.R., Rose D. Working with Discourse: Meaning beyond the Clause. L.: Continuum, 2003. 293 P.
9. Suzanne Eggins. An Itroduction to Sistemic Functional Linguistics 2nd edition. Continuum. N.Y. London. 2004. 199 P.
10. Thompson G. Introducing Functional Grammar. 2nd ed. L.: Hodder Arnold, 2004. 312 P.
11. Thompson G. Sistemic-Functional Grammar // Key ideas in Linguistics and Philosophy of Language. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2009. – 329 P.
12. Гаврилова Ю.В. Основные аспекты теории системной лингвистики в Великобритании конца века. Знание. Понимание. Умение. М. – 2015 №2. сс. 172-180.